

O'ZBEKİSTON
TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

2023 Vol. 3

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN:

LANGUAGE AND CULTURE

2023 Vol. 3

**www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz**

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o'rinnbosari: Nodir Jo'raqo'ziyev

Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Hamidulla Dadaboyev, Mustafo Bafoyev, Samixon Ashirboyev, Shodmon Vohidov (Tojikiston), Qozoqboy Yo'ldoshev, Farhod Maqsudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ülvi (Ozarbayjon), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyozmetova, Aftondil Erkinov, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinaxon Jamoldinova, Ziyoda Teshaboyeva.

Tahrir hay'ati

Nazef Shahrani (AQSH)

Elizabetta Ragagnin (Italiya)

Ahmadali Asqarov (O'zbekiston)

Isa Habibeyli (Ozarbayjon)

Akmal Nur (O'zbekiston)

Akrom Habibullayev (AQSH)

Bahtiyar Aslan (Turkiya)

Emek Üşenmez (Turkiya)

Abdulaziz Mansur (O'zbekiston)

Timur Kocaoğlu (AQSH)

Tanju Seyhan (Turkiya)

Xisao Komatsu (Yaponiya)

Alizoda Saidumar (Tojikiston)

Nikolas Kantovas (Buyuk Britaniya)

Akmal Saidov (O'zbekiston)

Mark Toutant (Fransiya)

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzARB mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiysiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiylar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov

Deputy Editor in Chief: Nodir Jurakuziev

Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Hamidulla Dadaboev, Mustafo Bafoev, Samikhan Ashirboev, Shodmon Vohidov (Tajikistan), Qozoqboy Yuldashev, Farhad Maksudov, Adham Ashirov, Zohidjon Islomov, Bahodir Karimov, Almaz Ulvi (Azerbaijan), Shamsiddin Kamoliddin, Roza Niyoziyeva, Aftondil Erkinov, Uzoq Jurakulov, Sulton Normamatov, Dilnavoz Yusupova, Dilorom Ashurova, Nozliya Normurodova, Odinakhan Jamoldinova, Ziyoda Teshabaeva.

Editorial Committee

Nazif Shahrani (USA)	Abdulaziz Mansur (Uzbekistan)
Elisabetta Ragagnin (Italy)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ahmadali Asqarov (Uzbekistan)	Tanju Seyhan (Turkey)
Isa Habibeyli (Azerbaijan)	Hisao Komatsu (Japan)
Akmal Nur (Uzbekistan)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Akrom Habibullaev (USA)	Nicholas Kontovas (Great Britain)
Bahtiyar Aslan (Turkey)	Akmal Saidov (Uzbekistan)
Emek Ushenmez (Turkey)	Marc Toutant (France)

"Uzbekistan: Language and Culture" is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Abdulhay Sobirov

O'zbek tilining buguni va kelajagi bo'yicha mulohazalar.....6

Marhabo Umurzoqova

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini.....17

Sadagat Abbasova

Turli tillarda ma'nosiz ovoz almashish yo'nalishlari.....31

Adabiyotshunoslik

Sebahat Deniz

Büyük Türk Hakanı Babür'ün ve Neslinin Türk Edebiyatının
Gelişmesindeki Rolü.....43

Ilyos Ismoilov

Iskandarnomalarda yunon donishmandlari obrazi.....58

Nodira Xolikova

O'zbek jadid she'riyatida ayol obrazining ijtimoiy-estetik omillari
(Cho'lpon va Hamza ijodi misolida).....77

Fan. Ta'lim. Metodika

Vahobjon Nazarov

Fransuz tili darslarida multimedia vositalari: turlari va
texnologiyalari.....94

Sotsiologiya. Psixologiya

Komil Kalanov

O'zbek tilidagi duolarda muqaddaslik timsoli ifodasining
sotsiologik talqini.....108

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin

Somoniylar sulolasining huquqiy maqomi.....132

CONTENT

Linguistics

Abdulhay Sobirov

Reflections on the Present and Future of the Uzbek Language.....6

Marhabo Umurzakava

The Concept of Linguistic Personality and its Linguistic Interpretation...17

Sadagat Abbasova

Directions of Voice Substitutions Without Meaning in
Different Languages.....31

Literature

Sebahat Deniz

The Role of the Great Turkish Khan Babur and his Generation
in the Development of Turkish Literature.....43

Ilyos Ismoilov

The image of Greek Sages in Iskandarnames.....58

Nodira Kholikova

Socio-Aesthetic Factors of the Female image in Uzbek Jadid Poetry
(using the example of poems Chulpan and Hamza).....77

Science. Education. Methodology

Vahobjon Nazarov

Multimedia tools in French Language Classes: Types and
Technologies.....94

Sociology. Psychology

Komil Kalanov

Sociological Interpretation of the Expression of the Symbol
of Holiness in Blessings in the Uzbek language.....108

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin

Legal Status of the Samanids Dynasty.....132

ments and shortcomings in this regard were discussed, as well as comments were given on the newly acquired terms.

Based on them, opinions about the present and future of the Uzbek language are presented.

Key words: *development, globalization, science, technology development, language, national language, society, term, national terminology, calquage, vocabulary, field lexicon.*

References

- Alixonto'ra Sog'uniy. 1993. *Turkiston qayg'usi*. Toshkent: Sharq.
- Teshaboyev, A., Zaynobiddinov S., Ismoilov Q., Ermatov Sh., Abduazimov V. 2014. *Nanozarralar fizikasi, kimiysi va texnologiyasi*. Toshkent: Tafakkur bo'stoni.
- Asqarov, I. 2021. *Sirli tabobat*. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi.
- Shamsudinov R. 2012. *O'zbekistonda sovetlarning qatag'on siyosati va uning oqibatlari*. Toshkent: Sharq NMAK.
- Umarxo'jayev, M., Solijonov, S., Rustamov, D., Mahkamov, N., Azimjonov J., Saidxonov, M., Jo'rayev, A., Abdumannonov X. 2022. *Sun'iy intellekt terminlari (inglizcha-o'zbekcha izohli tarjima lug'ati)*. Andijon: ALTAIIM.
- Sirojiddinov, Sh., Yusupova D., Davlatov O. 2019. *Navoiyshunoslik*. Toshkent: Tamaddun.
- Hojiev, A. 1994. "Mustaqillik sharoitida o'zbek tili lug'at tarkibining rivojlanish asoslari". *O'zbek tili va adabiyoti* 1-2: 20.
- <http://raai.org/library/tolk/aivoc.html>.
- <https://kun.uz/news/2017/08/07>.
- <https://kun.uz/42341857>.

Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini

Marhabo Umurzoqova¹

Abstrakt

Mazkur maqolada tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasining paydo bo'lishi va talqini masalasiga e'tibor qaratilgan. Tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi hisoblangan lingvopersonologiyada til va inson munosabatiga yondashuv, mazkur sohaning o'rganish obyekti va vazifalari oolib berilgan. Lisoniy shaxs tushunchasi, uning tuzilishi, tiplari, darajalari haqidagi qarashlar tahlil qilingan. Lisoniy shaxsga berilgan ta'riflar xilma-xil va turlicha, bu uning ko'p qirrali va murakkab hodisa ekanligini ko'rsatadi. Mazkur masala tilshunoslikda turli aspektda o'rganilgan bo'lib, ulardagi o'ziga xosliklar va umumiyliliklar ko'rsatib berilgan.

Maqolada lisoniy shaxs tushunchasiga lingvovidaktik, lingvokulturologik, lingvopoetik, sotsiolingvistik, psixolingvistik, kognitiv-stilistik aspektida yondashilgan ishlarga munosabat bildirilgan. Tilning, xususan, o'zbek tilining ifoda imkoniyatlarini ko'rsatishda lisoniy shaxsning o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *lisoniy shaxs, lisoniy shaxs tiplari, leksik birlik, idiolekt, badiiy obraz.*

Kirish

Tilshunoslikda yangi ilmiy paradigmanning yuzaga kelishi bilan til va shaxs munosabatiga bo'lgan qarashlar ham o'zgardi. Inson shaxsining tarkib topishida asosiy unsur hisoblangan til tadqiqiga oid soha yangicha yo'nalishdagi tadqiqotlar bilan boyidi. Lingvopersonologiya bir necha fanlar kesishmasida shakllangan fan bo'lib, uning o'rganish obyekti lisoniy shaxs hisoblanadi. Bugungi kunda lisoniy shaxsga turli nuqtayi nazardan baho berilgan, talqin qilingan, tavsiflangan qator tadqiqotlar yuzaga kelgan. Tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasi lingvovidaktik, lingvokulturologik, lingvopoetik, sotsiolingvistik, psixolingvistik,

¹Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti.

E-pochta: umurzakovamarkhabo@gmail.com

ORCID ID: 0000-0001-5658-789X

Iqtibos uchun: Umurzoqova, M. E. 2023. "Lisoniy shaxs tushunchasi va uning lingvistik talqini". *O'zbekiston: til va madaniyat* 3: 17 – 30.

kognitiv-stistik aspektida o'rganilgan bo'lib, bulardan lingvo-didaktik, lingvokulturologik, lingvopoetik yo'nalishdagi ishlarda lisoniy shaxs tushunchasi nazariy asosga va tavsiflashning ma'lum bir metodologiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqotlarda lisoniy shaxsning struktural, kommunikativ va strategik ahamiyatiga e'tibor qaratilgan bo'lib, ularda lisoniy shaxsga berilgan tavsiflarning xilma-xilligi, lisoniy shaxs tiplarini ajratishda yondashuvlarning turlichaligini tushunchaning ko'p qirraliligi hamda struktural-semantik jihatdan murakkabligi bilan izohlash mumkin.

Lisoniy shaxsga qiziqish dastlab badiiy diskursda muallifning individual uslubi va personaj nutqining lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xosliklarini o'rganish bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Rus tilshunosligida lisoniy shaxs tushunchasiga oid qarashlar dastlab V.V.Vinogradovning badiiy proza tili tadqiqiga bag'ishlangan asarida (1930) uchraydi. Y.N.Karaulov badiiy nutq, stilistika va poetikani o'rganishda yangicha yondashuvga turki berishi mumkin bo'lgan salmoqli salohiyatga ega bo'lgan g'oya, tushuncha V.V.Vinogradovga tegishli ekanligini hamda badiiy matn tili tadqiqiga bag'ishlangan ishlarda olimning ulushi katta ekanligini ta'kidlaydi [Караулов 2010, 28].

V.V.Vinogradov badiiy asar tili haqidagi qarashlarga fikr bildirar ekan, Boduen de Kurtene, Potebnya ishlariga to'xtaladi. Potebnyaning ma'lum bir ijtimoiy-lingvistik hamjamiyatdagi she'riy shakllarning o'zaro ta'siri masalasini yoritishda aniq bir konkret shakldan qochganligini, Boduen de Kurtene ham xuddi Potebnya singari badiiy asar tili haqidagi tadqiqotlaridan tarixiy tahlil va tarixiylik usullarini dunyoqarash sifatida talqin qilishdan olib tashlaganligini qayd etadi [Виноградов 1980, 60]. Tilshunos olim lisoniy shaxs tushunchasi Boduen de Kurteneni jamoaning ijtimoiy-lingvistik shakllari va me'yorlari konteyneri sifatida, turli xil ijtimoiy-lingvistik kategoriyalarni aks ettiruvchi, jamlovchi markaz sifatida qiziqtirganligini, individual ijod muammosi Boduen de Kurtene uchun begona bo'lib, badiiy asar tili uni faqat ijtimoiy guruh qobiliyatları va tendensiyalarni aks ettirish nuqtayı nazaridan tadqiq qilganligini ta'kidlaydi [Виноградов 1980, 61]. V.V.Vinogradovning muallif obrazi va badiiy obraz tushunchalariga bo'lgan e'tibori, uning badiiy asardagi lisoniy shaxs, badiiy obraz va muallif obrazi o'rtasidagi bog'liqlik masalasiga oydinlik kiritishiga sabab bo'lgan.

Tilshunoslikda lisoniy shaxs masalasini monografik aspekt-

da tadqiq qilgan Y.V. Ivansova bu so'z birikmasi V.V. Vinogradov bilan bir paytda Y.L. Vaysgerber ishlarida uchrashini qayd etadi, asos sifatida uning quyidagi fikrini keltiradi: "til eng umuminsoniy madaniy merosni ifodalaydi. Hech kim o'zining lingvistik shaxsiyati tufayligina tildan foydalanmaydi; aksincha, bu til malakasi unda til jamoasiga mansublik asosida o'sadi" [Иванцова 2010, 25]. Y.V. Ivansova "har ikki asarda ham ilmiy muomalaga ilk bor kiritilgan so'z qo'llanishi hali qat'iy terminologik xususiyatga ega emasligini sezish qiyin emas; olimlarning hech biri yangi konsepsiyaning talqinini bermaydi", deb hisoblaydi va mazkur tushuncha termin darajasiga yetishi uchun yarim asr vaqt zarur bo'lganligini qayd etadi [Иванцова 2010, 25]. Haqiqatdan ham tilshunoslikda lisoniy shaxs masalasining qo'yilishi bilan turli yo'naliishlarda tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, aksar hollarda tildan foydalanuvchiga nisbatan qo'llanilganligini, lisoniy shaxs mohiyatini to'laqonli ochib berish uchun yangi terminlar kiritilishi zaruriyat ekanligini vaqt ko'rsatdi.

Tilshunoslikda lisoniy shaxs tadqiqiga bag'ishlangan ishlar orasida Y.N. Karaulovning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Tilshunos olim lisoniy shaxs tushunchasini tavsiflar ekan, lisoniy shaxs sifatida har qanday til egasi bo'la olishini ta'kidlaydi, uni "lisoniy shaxs – bu umuman shaxs tushunchasining chuqurlashishi, rivojlanishi, qo'shimcha mazmun bilan to'yinganligi", - deya izohlaydi [Караулов 201, 38].

Insonning jismoniy va ma'naviy xususiyatlarining ijtimoiy ahamiyati borasida falsafiy, sotsial va psixologik qarashlar mavjud. Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda fanlararo mavjud atamaning ko'chishi natijasida paydo bo'lgan. S.T. Vorkachev lisoniy shaxs haqida mavjud ta'riflarni umumlashtirgan holda quyidagicha tavsiflaydi: "til egasi, nutqiy qobiliyatga ega bo'lgan, aniqrog'i nutq tuzish va idrok eta oladigan shaxs; tildan aloqa vositasi sifatida foydalanadigan kommunikant; o'z tilining lug'at boyligini egallagan, millatning milliy-ma'naviy qadriyatları, xulq-atvorining prototipi" [Воркачев 2001, 65]. Ko'rinish turibdiki, S.T. Vorkachev lisoniy shaxs tushunchasini keng ma'noda qo'llaydi hamda Pifagorning qaysi bir xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini o'rganmoqchi bo'lsang, uning tilini o'rgan degan fikri to'g'ri ekanligini asoslaydi.

S.T. Vorkachev lisoniy shaxs va konseptni lingvokulturologiyaning asosiy kategoriyalari ekanligini hamda tabiiy tilda so'zlovchining umumiyl mentalitetini va aqliy salohiyatini aks ettirishini ta'kidlaydi [Воркачев 2001, 72]. Shu o'rinda eslatib

o'tish kerakki, lingvokultrologiyada konsept tushunchasi yuqori darajadagi mavhumlikning semantik shakllanishi sifatida namoyon bo'ladi. Lisoniy shaxsning kognitiv darjasи olam haqidagi tasavvurlarining nutqida yoki tuzgan matnida aks etishi bilan yuzaga chiqadi.

Inson tildan, eng avvalo, aloqa vositasi sifatida foydalanadi, shunday ekan, nutq jarayonida tilning ifoda imkoniyatlari turli darajada namoyon bo'ladi. "Lisoniy shaxs, shuningdek, kommunikativ shaxs – tildan aloqa vositasi sifatida foydalanadigan insonning verbal xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari yig'indisi sifatida ham tushuniladi" [Богин, 1984].

Tilshunoslikda lisoniy shaxs tushunchasini lingvodidaktik yo'nalishda tadqiq qilishda G.I.Beginning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. G.I.Begin lisoniy shaxs modeli nafaqat matnlarning tuzilishi jihatdan turlarini, balki matnlarning turlicha tushunish mezoniga ko'ra tipologiyasini ham belgilashga yordam beradi deb hisoblaydi. Lisoniy shaxs matn tuza olish, uni tushunish, talaffuz qilish sifatiga ega shaxs bo'lib, tadqiqotchi kuzatishlari natijasi o'laroq, lisoniy shaxsning besh darajasini ko'rsatadi. Unga ko'ra lisoniy shaxs jamiyatda qabul qilingan to'g'ridan to'g'ri nominatsiyaning qo'llanilish chastotasi yuqorilarini o'zlashtirib, nutqni ichki nutqqa o'tkazadi, bu esa leksik-grammatik bilimlarga yo'l ochadi, shu orqali mavjud imkoniyatlardan mosini tanlashga ko'maklashadi, natijada matn ma'noli tarzda shakllanadi [Богин 1984, 5]. G.I.Begin lisoniy shaxsga nutqiy harakatlarni bajarishga, nutq yaratishga va qabul qilishga tayyorligi nuqtayi nazaridan yondashadi hamda lisoniy shaxsning uch aksiomaga asoslangan parametrlarini keltirib o'tadi: til ko'nikmalari (fonetik, leksik, grammatik); nutq faoliyati turlari (gapirish, tinglash, o'qish, yozish); lisoniy shaxsni rivojlantirish parametrlari (to'g'rilik, ichki nutq, mazmunan to'yinganlik, to'g'ri tanlov, sintez). Tadqiqotchining mazkur ishi o'z fikrini erkin, aniq, mantiqli yetkaza oladigan lisoniy shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Lisoniy shaxsning yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarini aniqlash bilan birga ikkita asosiy xususiyatga – til qobiliyati va kommunikativ (nutq) kompetensiyasiga ega bo'lishi ham muhimligini ta'kidlaydi [Богин 1984, 12-13]. Keltirilgan bu ko'rsatkichlar lisoniy shaxsning nutqiy qobiliyatini, ya'ni tilni bilish, undan foydalanish, kommunikativ aloqa vaqtida qo'llay olish darajasini ko'rsatadi. Lisoniy shaxs tadqiqida bu ko'rsatkichlarning o'zagina yetarli emas. "Bugungi kunda linvopersonologiya (yoki lingvistik personologiya)da til inson omilisiz voqelana olmaydigan,

uning ruhiyati, ijtimoiy mavqeyi, jinsi, etnik kelib chiqishi, milliy-madaniy qarashlari kabi tashqi omillar bilan bog'liq holda yaratilgan nutq asosida reallashuvchi imkoniyat tarzida o'rganilmoqda va bunda asosiy e'tibor matn tahlili orqali lisoniy shaxsga tavsif berish masalasiga qaratilmoqda" [Лутфуллаева, Худойберганова 2007, 37].

Tilshunoslik va notiqlikka oid fanlarni o'qitish jarayonida lisoniy shaxsni tarbiyalash masalalari G.I.Bikova tomonidan tadqiq qilingan. Tadqiqotchi rus tili va adabiyoti fakulteti talabalarining lisoniy shaxsi tuzilishi va mazmunini aniqlab, tajribalar asosida uning rivojlanish darajalarini belgilaydi [Быкова, 1999]. Mazkur tadqiqotlar lingvodidaktik aspektda olib borilganligi uchun ham lisoniy shaxsni rivojlanishiga e'tibor qaratilgan. Bu yo'nalishda qilingan ishlardan yana biri L.P.Klobukovaga tegishli bo'lib, tadqiqotchi Y.N.Karaulovning lisoniy shaxs darajalari haqidagi fikriga qo'shilmaydi. Lisoniy shaxsnинг nol darajasini ona tili bo'lмаган ikkinchi tilni o'rganuvchilarga nisbatan qo'llash mumkin deb hisoblaydi. Nutq jarayonida oddiy muloqotga kirisha oladigan shaxs lisoniy shaxs emas degan fikrni bildiradi va bunday holatda lisoniy shaxs terminiga zid bo'lgan nutq shaxsi terminini taklif etadi [Клобукова 1997, 29]. L.P.Klobukova konsepsiyasiga muvofiq har qanday lingvistik shaxs "bir tomondan, tilning turli darajalarini, ikkinchi tomondan, nutq faoliyatining asosiy turlarini, uchinchidan, nutq muloqoti sodir bo'ladigan mavzular, sohalar va vaziyatlarni hisobga olgan holda ko'r qatlamlı va ko'r komponentli paradigmaşını ifodalaydi" [Клобукова 1997, 29]. Tadqiqotchi lingvodidaktika nuqtayi nazaridan uchinchchi ko'rsatkich lisoniy shaxs uchun muhim ko'rsatkich deya ta'kidlaydi. Haqiqatdan ham muloqot jarayonida nutq vaziyatiga mos birliklar, ularning turli ma'no tovlanishlari, pragmatik imkoniyatlarini hisobga olgan holda nutq tuza olgan shaxsni yuqori darajadagi lisoniy shaxs sanash mumkin.

L.P.Klobukovaning rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda nutq egalari til bilish darajasi, nutq tuza olish malakasi, kommunikativ vaziyat va soha bo'yicha farqlanishlari mumkinligi haqidagi fikrlarini Y.Y.Proxorov ham yoqlaydi. Lisoniy shaxs va nutqiy shaxs bir-biridan farqli ekanligi haqidagi fikrlarga munosabat bildirar ekan, nutqiy shaxs bir tomondan lisoniy shaxsning tarkibiy qismi sanalsa, ikkinchi tomondan, muayyan tilda nutq tuza oladigan shaxs hamdir. "Agar lisoniy shaxs nutqiy shaxslar paradigmaşı bo'lsa, nutqiy shaxs real muloqot paradigmaşidagi, voqelikdagi lisoniy shaxsdir [Прохоров 2016, 105-106]. Bundan shunday

xulosaga kelish mumkinki, lisoniy shaxsning muayyan bir vaziyatda muloqot mavzusi, g'oyasi, maqsadga mos voqelanishi nutqiy shaxs deb tushuniladi. Ammo nutq, u og'zaki yoki yozma shaklda bo'lsin, lisoniy shaxsning tildan foydalana olish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shunday ekan, nutq tuza oladigan, muloqotni amalga oshira oladigan, tildan o'z imkoniyati darajasida foydalana oladigan, Y.N.Karaulov tasnidagi uch darajadan biriga mos keladigan nutq egasini lisoniy shaxs sifatida nomlagan ma'qul.

Har qanday til egasining madaniy-ma'naviy, ijtimoiy, psixologik ko'rsatkichlarni bilishi va ulardan foydalana olish darjasini bir xil emas. Bu uning lisoniy shaxs sifatidagi kognitiv va pragmatik darajalariga bog'liq bo'lib, muayyan bir vaziyatda muloqotga kirishish uchun shu vaziyatga mos birliklar tanlanadi. Y.Y. Proxorov lisoniy shaxsni tildan foydalana olishda yuqori malakaga ega bo'lgan, uning ifoda imkoniyatlaridan imkon qadar to'liq foydalangan, asl mohiyatini anglagan shaxs sifatida tavsiflaydi. Lisoniy shaxs tushunchasi bevosita kommunikativ maydon tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, u ushbu maydonda voqelanadi. Kommunikativ maydon "muayyan bir lisoniy shaxs zaruriy ehtiyojlarini amalga oshirishi mumkin bo'lgan nutqiy sohalari majmuidir" [Прокопов 2016, 113]. V.I. Karasik lisoniy shaxs tushunchasini insonning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi bilan bog'liqlikda o'rgangan. Lisoniy shaxs ma'lum bir milliy-madaniy jamoaning aksilogik birliklarining tashuvchisi, shuningdek, o'ziga xos pragmalingvistik xususiyatlarni yuzaga chiqaruvchi sifatida talqin qilinadi [Карасик 1991, 184].

Insonlarning tildan foydalana olish imkoniyatlari, ya'ni, til egalarining lisoniy qobiliyatları turlicha bo'lganligi sababli ularning lisoniy shaxs sifatida voqelanishi ham turlichadir. Nutq yaratuvchisining lisoniy qobiliyatiga qarab turli bo'lishini hisobga olgan holda N.Y. Buryak nutq yoki yaratilgan matnlarning quyidagi belgilariga qarab farqlanishini qayd etadi: "a) tarkibiy va lingvistik murakkablik darjasini; b) voqelikni aks ettirishning chuqurligi va aniqligi; v) ma'lum bir maqsad yo'nalishi bilan farq qiladigan so'zlar bilan to'ldirilganligi. Bu ta'rif insonning qobiliyatlarini u yaratgan matnlarning xususiyatlari bilan oydinlashtirishga yordam beradi" [Буряк 2001, 81-84].

V.P. Neroznak lisoniy shaxs tushunchasini dastlab ikki turga – idiolekt va polilekt shaxsga ajratadi. Idiolekt – bu statik holatdagi nutq xususiyatlari bilan tavsiflangan sinxron individuallanishlar ketma-ketligi bo'lsa, polilekt til taraqqiyoti nuqtayi nazaridan uzoq vaqt davom etgan lingvistik holatlarni (individuallarni) diaxron

tarzda namoyon etadigan dinamik tizim sifatida namoyon bo'ladi [Нерознак 1996, 113]. Idiolekt tilshunoslikda yakka shaxsga xos individual xususiyatlar yig'indisi sifatida talqin qilinadi.

Lisoniy shaxs tushunchasiga ta'rif berar ekan, V.P. Neroznak uni ikki asosiy turga ajratadi: "1) tilning qayta ishlangan o'rtacha adabiy me'yorini aks ettiruvchi standart lisoniy shaxs; 2) belgilangan til me'yorlaridan chetga chiqadigan nostandard lisoniy shaxs. Nostandard shaxs turi nutq madaniyatining ikki qarama-qarshi tomonini egallagan lingvistik elementlarni, N.S.Trubetskoy ta'biri bilan aytganda, til madaniyatining "yuqori" va "quyi" tomonlarini birlashtiradi" [Нерознак 1996, 113-114].

Lisoniy shaxs tushunchasi til sohibining ongi, dunyoqarashi bilan til o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Har qanday shaxs o'zini obyektiv faoliyat orqaligina emas, balki til va nutqsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan muloqot orqali namoyon qiladi. Insonning nutqi uning ichki dunyosini aks ettiradi va uning shaxsiyati haqida tasavvur hosil qilishda ko'maklashadi.

Lisoniy shaxs tushunchasi Z. Xachmafova tomonidan kognitiv-funksional va lingvomadaniy aspektida tadqiq qilingan. Tadqiqotchi ayol lisoniy shaxsini ayol mualliflar tomonidan yaratilgan rus va nemis tillaridagi badiiy matnlar asosida o'rganadi. Tadqiqotchi ayollar nasrining matnlari ayollarning dunyodagi roli va o'rni haqidagi g'oyalarni, shuningdek, jamiyatda qabul qilingan erkaklar va ayollar o'rtasidagi munosabatlar hamda mavjud bo'lgan stereotiplarni, shu bilan birga, yo'qligi yaqqol seziladigan ayol idealini aks ettirishini ta'kidlaydi [Хачмафова 2011, 10]. Lisoniy shaxsning voqelanishi ko'p omillarga, xususan, jins omiliga ham bog'liq bo'lib, ayol va erkak lisoniy shaxsi farqlanadi. A.G.Fomin gender diskurs sifatida muloqot jarayonida ayol va erkakka xos bo'lgan xususiyatlarning tilda va nutqda aks etishi deb ko'rsatadi [Фомин 2004, 14]. A.M.Ishegulova boshqird yozuvchisi Y.Xammatov lisoniy shaxshini tadqiq qilar ekan, yozuvchi asarlarida qo'llanilgan kasb-hunar leksikasi yozuvchi tilining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga yordam berishini, xalq ruhini yetkazishda obratzlik, emotsionallik, haqqoniylilikka erishish uchun shevaga oid so'zlardan foydalanganligini ta'kidlaydi [Ишегулова 2016, 14]. Mazkur tadqiqotda yozuvchi lisoniy shaxsi lingvopoetik aspektida tadqiq qilingan bo'lib, tadqiqotchi muallif lisoniy shaxsining namoyon bo'lishida asosan leksik birliklar, badiiy tasvir vositalarining o'rni masalasiga e'tibor qaratgan. Tadqiqotda yozuvchi lisoniy shaxsining lingvokognitiv darajasining asosiy

elementlari sifatida o'xshatish, epitet, metafora tahlilga tortilgan [Ишегурова 2016, 17].

Lisoniy shaxsni tavsiflashda leksik tarkib asosiy indikator hisoblanadi va lisoniy shaxsni belgilashda ko'p hollarda shu ko'rsatkichlar e'tiborga olinadi, lekin bu indikatorlarning o'zinigina tadqiq qilish yetarli emas. Lisoniy shaxsning shakllanishida sintaktik birliklarning, xususan, muallifning gap tuzishi, emotsiyallik-eksperessivlikni ta'minlovchi birliklar, qurilmalardan foydalanishi ham muhim sanaladi. Sintaktik birliklarni tahlil qilish badiiy asardagi personajning yorqin shaxsiy xususiyatlarini aniqlashga, uning xatti-harakati yoki mualif nomidan bildirilgan baho munosabati natijasida shakllangan g'oyani shaxsning pragmatik maqsadi bilan bog'lash imkonini beradi.

Rus tilshunosligida lisoniy shaxs shakllanishida sintaktik birliklarning o'rni masalasi ham tadqiq qilingan. O.V.Shatalova lisoniy shaxsning sintaktik xususiyatlariga e'tibor qaratar ekan, badiiy asardagi sintaktik birliklarning muayyan matn sharoitlarida imkoniyati yuqori bo'lishini, bu adabiy asarning badiiy va estetik asosiga samarali ta'sir qilishini, matnni strukturaviy jihatdan tartibga solishini ta'kidlaydi [Шаталова 2012, 14]. Tadqiqotchi sintaktik qurilmalarning funksionalligini baholashda zamonaviy tilshunoslik talablariga mos keladigan yondashuv sifatida integral yondashuvni ma'qul ko'radi va bu yondashuv quyidagi vazifalarini: "ona tilida so'zlashuvchilarining lingvistik kompetensiyasini tafsiflovchi tarkibiy elementlarni aniqlash; gapning kommunikativ-funksional turi va nutqda ma'lum bir bo'lakni aktuallashtirish natijasida qo'yilgan maqsad o'rtasidagi qonuniyatni aniqlash imkonini beradi", - deb hisoblaydi [Шаталова 2012, 14].

Lisoniy shaxs muammosi lingvopragmatik va sotsiolingvistik aspektida ham o'rganilgan. Jumladan, A.G.Manulyanning R.Kipling lisoniy shaxsining lingvopragmatik va sotsiomadaniy xususiyatlariga bag'ishlangan tadqiqotida lisoniy shaxsning sotsiomadaniy va til omillarining o'zaro munosabati natijasida shakllanishiga, lisoniy shaxsga xos bo'lgan umumiylilik va xususiylikka, yozuvchi lisoniy shaxsining individual jihatlariga, obraz va matn yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilgan konseptlarga e'tibor qaratilgan [Мануэльян 2019].

Tilshunoslikda polidiskursiv lisoniy shaxs tushunchasi ham mavjud bo'lib, tasniflash doirasida aniqlangan turli shakldagi nutqlar subyekti bo'lgan va bu nutqlar orqali turli ijtimoiy rollarni namoyon eta olgan til egasi tushuniladi. Lisoniy shaxs polidiskursiv

portretining xususiyatlarini tadqiq qilgan Y.R.Korniyenko: "Lisoniy shaxs modelida ekstralengvistik ko'rsatkichlar (parametrlar) ni (biologik, psixologik, ijtimoiy), kognitiv parametrlarni (olam manzarasi, konseptual tizim), verbal parametrlar (leksik, grammatik, uslubiy), emotiv-motiv parametrlar (tanlangan janr, pragmatik strategiya va taktikaga mos intensiya, nutq qurilishi) ni ajratib ko'rsatish kerak", - degan fikrni ilgari suradi [Корниенко 2021, 24]. Tadqiqotchi diskursiv shaxs terminini qo'llar ekan, uni lisoniy shaxsning namoyon bo'lishi deya ta'riflaydi hamda "diskursiv shaxs deganda faoliyati nutqni yaratish va/yoki idrok etishga qaratilgan, ya'ni diskursiv faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs"ni nazarda tutadi [Корниенко 2021, 40].

Lisoniy shaxsga berilgan tavsiflardan ko'rinish turibdiki, har qanday til egasi emas, "odam bilan bog'liq hodisalar orasidagi murakkab, muhtasham va muhtaram" [Махмудов 2017, 3] hodisadan imkon qadar, ayniqsa, badiiy asarda mohirlik bilan foydalangan shaxsga nisbatan lisoniy shaxs atamasini qo'llash maqsadga muvofikdir. Lisoniy shaxsning tildan foydalanish darajasining oshishi yaratuvchanlik qobiliyati bilan bog'liq. "Olamning konseptual manzarasi zamirida hosil bo'ladigan bilim egasi bo'lган shaxs "kommunikativ yetuklik" darajasiga erishganidan so'ng uning lisoniy qobiliyati yaratuvchanlik uzvi bilan boyiydi. Demak, haqiqiy lisoniy qobiliyat, N.Chomskiy istaganidek, yadroviy sintaktik strukturalarning tuzilish qoidalarini egallash orqali shakllanmasdan, balki mental va kommunikativ maqsadlarni umumlashtiruvchi nutqiy-tafakkur faoliyat malaka-ko'nikmalari mavjudligida namoyon bo'ladi" [Сафаров 2018, 10]. Sh.Safarov Y.N.Karaulovning lisoniy shaxs shakllanishining uch bosqichi farqlanishi shartli ekanligini ta'kidlaydi, "chunki ular tarkibidagi birliklarning o'zaro aloqasi nafaqat u yoki bu bosqich doirasida, balki bosqichlararo ko'rinishda ham namoyon bo'ladi. Shunga binoan, lisoniy shaxsga xos xususiyatlar tuzilishini bosqichlar munosabatining vertikal tasvirida namoyish etgandan ko'ra, doira shaklida tasvirlash ma'quldir. Zotan, doira shakli struktur aloqalar va munosabatlar dinamikasini aniq tasavvur qilish imkoniyatini beradi" [Сафаров 2018, 11]. Tilshunos olim tarjimon lisoniy shaxsi, uning o'ziga xosliklari, ikkilamchi lisoniy shaxs masalasiga e'tibor qaratadi. "Ijtimoiy-lisoniy shaxs rolini bajarishi va mutaxassis sifatida madaniyatlararo muloqot paytida subyektlarning bir-birini tushunishini ta'minlovchi lisoniy-madaniy vositalar, amallar majmuasini shakllantirilishi va boyitilishi"ni tarjimon faoliyatini

harakatga keltiruvchi asosiy motiv sifatida baholaydi [Сафаров 2018, 19].

D.Xudoyberganova lisoniy shaxsga quyidagicha ta’rif beradi: “Voqelikni aks ettirish darajasi, ma’lum maqsadga yo’naltirilgan nutqiy hosilalarni yaratish va qabul qilish bilan bog’liq qobiliyatlar majmuiga ega bo’lgan shaxs, muayyan tilning namunaviy vakili” [Худойберганова 2015, 28]. Sh.Usmonova lisoniy shaxsga tavsif berishda nutqiy shaxslarning serqirra va ko’pqatlamli ekanligiga e’tibor qaratadi [Usmonova 2019, 181]. Ta’riflardan ko’rinib turibdiki, lisoniy shaxs har qanday til egasi, tildan foydalanuvchi emas, namunaviy vakil darajasidagi shaxsdir. Biz ham lisoniy shaxs sifatida tildan foydalinishda uning ifoda imkoniyatlarini to’liqroq, o’ziga xos uslub va usulda ochib bergan ijodkor shaxslarning lisoniy shaxs sifatidagi faoliyati hosilalarini tadqiq qilishga harakat qilamiz.

O’zbek tilshunosligida lisoniy shaxs tiplari D.Niyazova tomonidan o’rganilgan. Tadqiqotchi badiiy matnda lisoniy shaxs tiplarini shaxsiga xos sifatlarni (ijtimoiylik belgisi, yosh xususiyatlari, jinsi, millati, dini), yakka yoki jamoa nutqini anglatishiga ko’ra ajratadi [Ниязова 2020, 42]. Mazkur tadqiqotda lisoniy shaxslarni belgilashda asosan lisoniy indikatorlarga e’tibor qaratilgan bo’lib, lisoniy shaxs nutqida qo’llaniladigan leksik birliklar, gap turlarining qo’llanilishi bilan bog’liq o’ziga xosliklar O’.Hoshimov asarlari misolida yoritilgan. Lisoniy shaxs tiplarini ajratish ijodkorning o’ziga xos uslubi haqida tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Ijodkorning kuzatuvchanligi, tilning ifoda imkoniyatlaridan foydalana olish qobiliyati turli pragmatik maqsadlarni yuzaga chiqarishda vosita bo’ladi. Bu haqda biz U.Hamdam hikoyalari misolida so’z yuritganimiz [Umurzakova, 2021].

Lisoniy shaxsni N.Normurodova dastlab ingliz tili materiallari asosida lingvokognitiv, lingvomadaniy, pragmatik aspektlarda o’rgangan bo’lsa [Нормуродова, 2012], doktorlik dissertatsiyasida diksursiv shaxs terminini qo’llaydi, mazkur terminning yuzaga kelish sababini kommunikatsiya jarayonida diskursiv amaliyot natijasida lisoniy shaxs terminining mohiyati mazmunan kengayganligi bilan izohlaydi [Нормуродова 2020, 18]. Mazkur termin L.P.Klobukova taklif etgan nutq shaxsi terminiga mos keladi. N.Normurodova ishida diskursiv shaxs “insonning diskursni yaratish va qabul qilishni taqozo qiluvchi qobiliyat va xarakteristikalarini yig’indisi sifatida tushuniladi. Tadqiqotchi diskursiv shaxsning darajaviy tavsif modelini Y.N.Karaulov lisoniy shaxsi asosida yaratadi, ammo

takomillashtirilgan, qo'shimcha va aniqliklar kiritilganligini ta'kidlaydi" [Нормуродова 2020, 19]. Haqiqatdan ham, til taraqqiy etib borar ekan, uni o'rganuvchi soha ham bir joyda qotib qolmaydi. Lisoniy shaxs tadqiqiga bag'ishlangan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlab lisoniy shaxsnii ta'minlovchi vositalar sifatida lisoniy indikatorlar, asosan, leksik birliklar olingan bo'lsa, keyingi tadqiqotlarda lisoniy shaxsga pragmatik, kognitiv nuqtayi nazardan yondashuv masalaning mohiyati ancha chuqurligini va har tomonlama yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Lisoniy shaxsga berilgan tavsiflardan ko'rinish turibdiki, bu tushuncha murakkab va ko'pqirrali. Og'zaki yoki yozma matn tuza oladigan, tildan aloqa vositasi sifatida foydalana oladigan har qanday shaxs lisoniy shaxsdir. Ammo lingvopersonologiyaning o'rganish obyekti har qanday shaxs emas, tilning "dunyoni bilish, bilimlarni toplash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish" [Махмудов 2017, 55] kabi vazifalarining bajarilishini ko'rsatadigan nutq tuza oladigan lisoniy shaxs bo'lishi kerak. Bu vazifalarning bajarilishi uchun esa nazarimizda lisoniy shaxs Y.N.Karaulov taklif etgan lisoniy shaxs tuzilishining uch darajasidan kamida ikkitasiga mos keladigan shaxs bo'lish lozim.

Xulosa

